



Tadqiqot **uz**

**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**31 MAY
№28**

CONFERENCES.UZ

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 28-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
8-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
28-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-8**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
28-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-8**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 28-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 май 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 18 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибод Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

АДАБИЁТ

1. Ravshanova Nafisa Hamdamovna

SAID AHMAD IJODINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARLARDAN
FOYDALANISHNING AHAMIYATI..... 7

2. Olimova Dilnoza Komiljonovna

ALISHER NAVOIY QIT'ALARIDA MATNIY TAFOVUTLAR..... 10

3. Djumaniyazova Nasiba, Turdieva Durjongul

YOMG'IRDAY BIR SOG'INCH KO'KSIMGA TO'LDI..... 12

4. Nazirova Nargiza Odiljonovna

ISTIQLOL DAVRI XURSHID DO'ST MUHAMMAD HIKOYALARIDA
MAVZU VA G'OYA..... 14

5. Дилобар Рахманова

ЭРКИН, ЁШ АВЛОДЛАР СЕНГА ЗЎР ҚАНОТ!..... 16



АДАБИЁТ

SAID AHMAD IJODINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Ravshanova Nafisa Hamdamovna

Karmana tumani 31-umumiyo o'rta ta'lif maktabi
2-toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
+998 93 156 14 45

Annotatsiya: Mazkur maqolada adabiyot fanini o'qitishda ilg'or texnologiyalarning darslarni samarali tashkil etishdagi o'rni, o'quvchilarda tanqidiy-kreativ fikrlashni rivojlantirish usullari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ijodiy fikrlash, badiiy tahlil, usul va metodlar , erkin fikrlash, dars bosqichlari, obrazlar.

Sir emaski, bugungi kunda ta'lif – tarbiya masalasi har qachongidan ham dolzarblik kasb etmoqda. Haqiqatda maktab – bilim va ko'nikmalarning asosiy manbayi. Hozirgi davrda yurtimizda faoliyat yuritayotgan barcha ta'lif muassasalari xodimlarining vazifasi maktab ta'lifini mustaqil hayotda o'rinni qo'llay oladigan avlodni tarbiyalashdan iborat. Adabiyot o'qitishning maqsadi esa badiiy asarlar yordamida sog'lom e'tiqodli, mustaqil fikrli, o'tkir hissiyotli, yuksak didli, axloqan barkamol, aqlan yetuk, o'zga insонning tuyg'ularini anglaydigan, o'z xatti-harakatlariga xolis baho bera oladigan shaxsning ma'naviy dunyosini shakllantirishdan iborat . Said Ahmadning "Ufq" romanini misolida adabiyot darslarida qo'llanishi mumkin bo'lgan metodlar haqida so'z yuritsak.

"Orzular daraxti" usuli orqali o'quvchilarga motivatsiya berish va rag'batlantirish mumkin. Baholash mezoni va usuli sifatida daraxt rasmi tarqatiladi.Uni o'quvchilar tilaklar yozilgan tarqatmalar bilan" sug'orib" boradilar va dars so'ngida o'qituvchi shu asosida o'quvchilarni baholaydi.Daraxt yashnashi uchun suv va quyosh zarur bo'lganidek, inson kamoloti uchun ham ezgu tilak va fazilatlar zarurligi o'qituvchi tomonidan ta'kidlanadi.

"Chala xat" usuli.Ushbu usuldan darsning o'tilgan mavzuni so'rash va yangi mavzuni mustahkamlash qismida foydalanish mumkin.O'quvchilar nuqtalar o'rnini zarur so'zlar bilan to'ldiradilar.Masalan, Said Ahmad hayoti va ijodini o'rganishda quyidagi savollardan foydalanish mumkin:

1.0'zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri Said Ahmad (to'liq ism-sharifi)... 1920-yilda ...mahallasida dunyoga keldi. (Husanxo'jayev, Samarqand darvoza)

2.U o'rta maktabni tugatgach, avval Toshkent..., so'ng Toshkent Pedagogika institutida o'qidi va uni yilda tugatdi.(Rassomchilik bilim yurtida, 1943-yil)

3.Yoshligidan adabiyotga havasmand bo'lgan adib adabiyot darslarida, maktabdagagi to'garaklarga faol qatnashardi. Adib dastlab ... jurnaliga adabiy xodim bo'lib ishga kirdi.("Mushtum" jurnali)

4.Said Ahmad juda sermahsul ijodkor. Adib ko'p yozsa- da, xo'b yozadi. Uning ...nomli dastlabki hikoyalar to'plami 1940- yilda chop etilgan.("Tortiq")

5.Shundan so'ng adibning «Er yurak», «Farg'ona hikoyalari», «Cho'l burguti», «Muhabbat» kabi ...yaqin katta-kichik kitoblari alohida to'plam va ko'p jildliklar shaklida nashr etilgan.(ellikka yaqin)

6.Bu asarlarning barchasi zo'r qiziqish va hayajon b bilan o'qiladi. Sababi, adabiyotshunoslarimiz to'g'ri ta'kidlaganlaridek, Said Ahmad Oybekning ...ni, G'afur G'ulom..., Abdulla Qahhoming ...fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan adib. (psixologik tasvir mahoratini, yumori, ixcham va teran fikrlash)

"Rolli o'yin" metodi.Asarda eng ta'sirli va yodda qolarli sahnalar rolli oyin sifatida tashkil qilinishi asar qimmatini oshiradi. "Ufq" romanini o'qitishda Tursunboy va Jannat xolaning to'qaydagi uchrashuvi sahnasini tanlash maqsadga muvofiq.



"Ufq" asaridan olingan sahna ko'rinishi. Jannat xola chayla oldiga kelganda Tursunboy qimirlamay o'tirardi. U shoshib ona qo'lidan tugunchani oldi-yu, hech qayoqqa qaramasdan, hech narsa demasdan o'zini ovqatga urdi. U bir umr ovqat ko'rmagandek pishillab, shaloplatib quymoqni yeb bo'ldi. Yog' bo'lib ketgan qo'llarini yaladi. Unga qarab turgan onaning yurakbag'ri ezilib, ko'zlaridan mo'lt-mo'lt yosh dumalardi. Tursunboy qo'llarini to'nining etagiga artib onasiga qaradi.

- Shattaligimni dadam biladimi? Unga aytma. Naq tutib beradi.

- Dadang bir oyoqdan ajrab kelgan.

- Bilaman, bilaman, - dedi Tursunboy yana labini yalab.

- Tog'aning o'g'lidan qoraxat kelgan, xotiniga bildirmayapti.

Tursunboy boshini egib qimirlamay o'tirib qoldi. U raisning o'g'li bilan o'rtoq edi. Ikkovi birga o'qishgan, birga katta bo'lishgan edi.

- Azizxon Qahramon bo'idi.

Tursunboy qo'l siltab teskari qaradi. Birdan boshini egdi-yu, uzoq sukutda qoldi.

- Shunaqa, bolam. Seni ham shunaqa qahramon bo'ladi, deb o'ylagan edik.

Tursunboy indamadi. Boyagi o'tirishida o'tiraverdi. Keyin bosh ko'tarib ma'yus dedi:

- Bir piyola achchiqqina ko'k choy bo'larmidi-ya!

- Qandoq qilib olib kelaman, bolam. Birov bilib qoladi. Sen sho'ring qurg'urga qumg'on olib kelay desam, o't yoqolmaysan. Tutunidan bilib qolishadi.

Tursunboy o'midan turib kerishdi. U kerishganda to'nining oldi ochilib yalang'och ko'kraklari ko'rinib ketdi.

- Yaktaging ham kir bo'lib ketibdi.

Birdan achimsiq ter hidi kelib ona dimog'iga urildi. U bumini jiyirib yuzini teskari o'girdi.

- Ko'ylak olib kelmapsan-da.

- Qandoq olib kelaman. Dadang bilib qolsa nima bo'ladi? Shu kunda o'zimning ham ancha mazam yo'q. Bezugak tuyapti. Dadangga bildirmayapman. Bilib qolsa, qishloqqa tushirib yuboradi. Men ketib qolsam, holing nima kechadi? Kechalari tanam zirqirab og'risa ham tishimni tishimga qo'yib chidayapman. Peshonam qursin, buncha sho'r bo'lmasa.

Bola onaning dardiga parvo qilmadi. Hamon labini yalab, boshqa o'ylar bilan ovora edi.

- Shunaqa, bolam, kasalman. Ishqilib, toleyingga o'lib qolmay-da.

- Anovi bola kim?

Dadang boshlab kelgan. Yaxshi ishlayapti. Tizzalarimda darmon qolmadi.

- Ertaga ovqatni ko'proq olib kel!

- Xo'p, bolam, xo'p. Ishqilib, kasalimni dadang bilib qolmasin-da, darrov qishloqqa jo'natvoradi.

- Etik topib kelmasang, oyoqlarimni qamish tilib tash-ladi.

- Etikni qaydan olaman? Dadang bir moy etik kiyadi. Bir oyog'i yo'q uning. Bugun ustarasini qidirib meni juda qiynavordi. Umrimda qilmagan ishim. Qaychi opkelgan edim. Sochingni olib qo'yaymi?

- Kerak emas. Etik topib kel!

Ona-bola uzoq gaplasholmadilar. Jannat xola, bolasini qabrga qo'yib kelayotgandek, yuragida og'ir dard bilan orqasiga qaytdi...

"Savollar yomg'iri" metodi. Bu metod asar tahlili darslarida foydalanishga tavsiya etiladi. "Savollar yomg'iri" usuli orqali asar mazmunini tahlil qilish, asardan xulosalar chiqarish va o'quvchilarda kreativ, individual fikrlashni rivojlantirish maqsadida foydalanish mumkin. Ushbu usul orqali bahs-munozara tarzida dars tashkil etiladi. Doskaga bulut tasviri tushirilgan plakat ilingan. Tomchi shaklidagi tarqatmalarga quyidagi savollarni yozish mumkin:

1.Nima uchun Tursunboy faqat yeyish-ichishdan boshqa dardi yo'q insonga aylandi?

2.Nima uchun ota-onasi bergen mehrga Tursunboy munosib javob bera olmadi?

3.Nima uchun Tursunboyatigi 20 qadam naridagi qishlog'iga borolmaydi, axir sevgani Zebi qo'l cho'zsa yetguday joyda-ku?

4.Nima uchun asar "Ufq"deb nomlangan?

5.Nima deb o'ylaysiz oramizda bugungi kun Tursunboylari bormi?

Savollarga javoblarni, har bir o'quvchining fikrini tinglab o'qituvchi fikrlarni xulosalaydi.

"Niqob ortida kim bor" usuli. Obrazlar tahlili yoki darsning mustahkamlash bosqichini ushbu usul orqali samarali tashkil etish mumkin. S.Ahmad teleminiatyuralar ustasi ham hisoblanadi.



Doskada parda tasviri va unga xomush va quvnoq qiyoqlar aks etgan niqoblar yopishdirilgan .O'quvchilar navbat bilan chiqib niqob tasvirini tanlaydilar ,unda asar qahramoni ismi yozilgan,uning ismini aytmay uning so'z bilan tashqi – ko'rinishi yoki tabiatini tasvirlaydilar .O'tirgan o'quvchilar kimligini topadilar. Masalan:Tursunboy, Ikromjon, Jannat xola, Zebi, Nizomjon,To'lambay,Rayimberdi (Tog'a)...nomlari berilgan . Xulosa qilib aytganda, ushbu usullar o'quvchining asarni o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va mavzuni yaxshi o'zlashtirib olishiga ko'maklashadi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi loyihasi.Adabiyot. Respublika ta'lim markazi. 2020.
2. Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi: o'qitish metodikasi (metodik qo'llanma) Z.Mirzayeva, K.Jalilov. Toshkent, 2020.
3. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8- sinfi uchun darslik.Sultonmurod Olim, Sunnat Ahmedov , Rahmon Qo'chqorov. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi. Toshkent, 2019.



ALISHER NAVOIY QIT'ALARIDA MATNIY TAFOVUTLAR

Olimova Dilnoza Komiljonovna
Buxoro davlat universiteti 1-bosqich magistri,
behzodhikmatov1996@gmail.com, (88) 300-09-79

Annotatsiya: Navoiyning "Badoye ul-bidoya" devonidan o'rin olgan "Vajhi maosh uchun kishikim desa fikr etay..." deb boshlanuvchi qit'asini "G'aroyib us-sig'ar" devonida ham uchratamiz. Bu ikki devonni o'zaro solishtirish natijasida matniy tafovutlar va tahrir jarayonlarini ko'rishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: "Xazoyin ul-maoniy", "Badoye ul-bidoya", "G'aroyib us-sig'ar", matniy tafovutlar, qit'a, tahrir, devon.

Buyuk ijodkorimiz Alisher Navoiy "Xazoyin ul-maoniy"ni tartib berar ekan, oldingi devondagi she'rlarini tahrir jarayoniga tortganini ko'rishimiz mumkin. Xususan, qit'alarida bu holat talaygina ko'zga tashlanadi.

Vajhi maosh uchun kishikim desa fikr etay,
Qismat rizosidin anga begonaliq kerak.

Ganji qanoat archi erur sultanat valek
Eldin tama'ni uzgali mardonaliq kerak.

Lazzoti nafs tarki samari ofiyat berur,
Lek ul shajarni ekkali farzonaliq kerak.

Kim ishq asiri o'lsaki, mumkin emas visol
Dard-u balog'a hamdam-u hamxonaliq kerak.

Tajrid nuridin kishi ko'z yorutay desa,
Ahhob hajri sham'ig'a parvonaliq kerak.

Gar anjumanni desa muridu muti' etay,
Ko'p nukta-vu fasonada afsonaliq kerak.

Botin harimida tilasa maxzani huzur,
Zohir uyi asosig'a vayronaliq kerak.

Zohir yuzidin ar tilasa toj-u izzu joh,
Dard-u balo muhitig'a durdonaliq kerak. [1, 628]
Qit'a "G'aroyib us-sig'ar" devonida quyidagi holatda keltirilgan .

Aqlning barcha tariqida maoshni dushvor bilmag-u junung'a qaror bermak
Vajhi maosh uchun kishikim desa fikr etay,
Qismat rizosidin anga begonaliq kerak.

Kunji qanoat garchi erur sultanat valek
Eldin tama'ni uzgali mardonaliq kerak.

Kim ishq asiri o'lsaki, mumkin emas visol
Dardu balog'a hamdamu hamxonaliq kerak.

Lazzoti nafs tarki samari ofiyat berur,
Lek ul shajarni ekkali farzonaliq kerak.



Tajrid nuridin kishi ko'z yorutay desa,
Ahbob hajri sham'ig'a parvonaliq kerak.

Gar anjumanni desa muridu muti' etay,
Ko'p nuktavu fasonada afsonaliq kerak.

Botin harimida tilasa maxzani huzur,
Zohir uyi asosig'a vayronaliq kerak.

Zohir yuzidin ar tilasa toju izzu joh,
Dardu balo muhitig'a durdonaliq kerak.

**Desang xalos o'lay borisidin Navoiydek,
Bexudlug'u may ichmagu devonaliq kerak. [2, 542]**

"Badoye ul-bidoya" devonidan o'rın olgan 8 baytli ushbu qit'a "G'aroyib us-sig'ar" devonida muallif tomonidan 9 baytli qit'aga aylantirilgan. Devondagi 1, 5-, 6-, 7-, 8- baytlarda hech qanday tahrir jarayoni ham tafovutli o'rirlar ham mavjud emas. E'tiborimizni qaratishimiz lozim bo'lgan baytlar esa 2-, 3-, 4-, 9- baytlar. 2-baytda tafovutli holat mavjud, 3- va 4-baytlar "G'aroyib us-sig'ar" devonida o'rın almashgan holda keltirilgan, 9-bayt esa yangi kiritilgan.

Matlada hech qanday o'zgartirish holati yo'q. Ikki devonda ham xuddi shu tartibda keltirilgan. Ya'nikim, "Tiriklik uchun fikr etmoqchi bo'lgan kishi qismatga rozi bo'lmasligi kerak". Biz e'tiborimizni qaratishimiz kerak bo'lgan baytlardan biri bu ikkinchi baytdir. Ikkinchi baytda 2 devonda 2 xil tarzda ifodalangan so'zlarni uchratishimiz mumkin. Ya'ni ganj – xazina va kunj - burchak tarzida. Bu ikki so'zning qay biri bayt mazmuniga mosligini aniqlashtirib olishimiz kerak.. Bu so'zni shoirning o'zi tahrir qilib tuzatgan bo'lishi mumkin, yoinki kotiblar tomonidan so'zni xato ko'chirish holati kuzatilgan bo'lishi. Qay biri tog'ri ekanligini, baytimizning mazmuniga muvofiqligini, misralarimizni sharhash mobaynida bilib olishimiz mumkin. "Garchi qanoatning bir burchagi o'zi sultanat bo'lsa ham, ammo eldan ta'ma qilmaslik uchun insonga mardlik zarur" , - desak to'g'ri bo'ladimi ? Yoki "Garchi qanoatning xazinasi o'zi bir sultanat, ammo eldan ta'ma qilmaslik uchun mardlik zarur", - desakmi? Menimcha, bayt mazmuniga "Badoye ul-bidoya" devonidagi "ganji" so'zi to'g'ri qo'llanilgan. Chunki ma'naviy bog'liqlik "qanoatning xazinasi" (qanoatning o'zi bir xazina ekaniga shoir ishora qilmoqda) deganimizda yaqqolroq ko'rinoqda.

Keyingi 3- va 4-baytlarga e'tibor qarataylik. Negaki, ushbu baytlar "G'aroyib us-sig'ar" devonida o'rın almashirgan holatda keltirilgan Navoiy ma'noviy ketma-ketlikni buzmaslik uchun ushbu baytlar o'rnini o'zgartirishni ma'qul topgan. Keyingi 5-, 6-, 7-, 8- baytlarda hech qanday tahrir jarayoni mavjud emas. Barcha baytlar o'z o'rnida qo'llanilgan.

Oxirgi baytni shoir qit'aga qo'shimcha qilgan. "Agar bularning hammasidan Navoiy kabi xalos bo'lay desang, o'zingdan ketishing may ichishing va devona bo'lishing kerak". Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Navoiyning ushbu qit'asidan orfografik farqlar, kotibning xatosi, qoldirilgan ayrim so'z va baytlar, baytlarning o'rın almashinish holatlari, tahrir jarayonlarni o'rganib chiqdik va tahlil qildik.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 1-том. Тошкент: "Фан". 1987.
2. Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 3-том. Тошкент: «Фан». 1988.
3. Эркинов А . Матншуносликка кириш. Тошкент - 1997.



YOMG'IRDAY BIR SOG'INCH KO'KSIMGA TO'LDI

Djumaniyazova Nasiba,
Urganch davlat universiteti dotsenti.
Turdieva Durjongul
UrDU Filologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek she'riyatining yetuk vakili, otashzabon shoir Usmon Azim she'riyatidagi yomg'ir timsoli tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: obraz, lirk qahramon, estetik g'oya, tabiat tasviri, timsol, ruhiy holat.

Yomg'ir timsoli o'zbek she'riyatida ko'p uchraydi. Shoir Usmon Azim ijodida ham yomg'ir timsoli o'ziga xos xususiyatlari bilan aks ettirilgan. Usmon Azim lirk merosi o'zining rang-barangligi, badiiy jihatdan yetukligi, obrazlar qo'llash mahorati bilan ajralib turadi. Buni shoir she'rлarida qo'llanilgan yomg'ir obrazi misolida ko'rishimiz mumkin. Har she'rda yomg'ir har xil mazmun kasb etadi. Jumladan, quyidagi misralarni kuzatar ekanmiz, she'rda yomg'ir mahzunlikni, hazinlikni ifodalashga xizmat qilganligini anglaymiz.

Tashqarida yomg'ir yog'ar,

Ko'z yoshdan ham og'ir yog'ar.

Bu yuraksiz dunyo uzra

Yurak yog'ar, bag'ir yog'ar.

Yomg'ir ko'z yoshlarning muayyan qiyofasini aks ettirib turgan ko'ngil nidosi deyish mumkin. Ayriliklari dilni ezib ko'z yoshlari orqali namoyon bo'ladi. Shoir tashqarida yomg'ir yog'ishi, ichkarida esa qalb og'rishini o'zaro qiyoslash orqali ifodalab bergan.

Usmon Azim yomg'irni obraz darajasiga chiqarib, u orqali estetik g'oyalalarini ifodalagan.

Ayrilikqa ko'nim yo'qdir.

Ko'z yoshingni artmoqlikka

Qo'lim yo'qdir,

Ko'nglim yo'qdir...

She'rлaridan birida jafokash yorini "derazangni yomg'irlar chertib o'tmasin" deb "jazolash"i fikrimizning tasdig'i bo'lsa, ajabmas.

Uyingizni topib bormasin xatlar,

Yomg'irlar chertmasin derazangizni.

Sizga hamroh bo'lsin eng og'ir dardlar,

Eng mayda dardlar ham qiyinasin sizni.

Xat detali orqali shoir insonlar e'tiborini nazarda tutsa, yomg'ir orqali esa orzu-umidlarini ifodalamoqda. O'z mahbubasining sitamlaridan ozor chekkan yor uni yolg'izlikka mahkum, ishqning dardlariga oshno bo'lishini tilaydi. SHu orqali xuddi o'zi kabi sevgi azoblarini chekishini istaydi. Aslida yolg'izlik o'zni anglash yo'lidagi bir qadam bo'lib, shu orqali oshiq mahbubasi dilida pokiza ishq hosil bo'lishini tilamoqda.

Shoir she'rлaridan birida uyatdan qizargan ayolni "yomg'ir bag'rida titratayotgan bargga" o'xshatadi.

Menga ko'zi tushib ayol qizardi,

Uyaldi-ko'llari tushdi shalvirab.

Endi u qarshimda yig'lab turardi,

Yomg'ir qo'ynidagi bargday qaltirab.

Keyingi misralarda tasvir ko'lami, ifoda maromi tezlashadi, lirk qahramonning qalb uryoni kitobxonni befarq qoldirmaydi.

Seni ostonada quchadi birov.

Gul kabi hidlaydi seni – to'ymaydi.

Yog'aman, yog'aman – ravishim yig'lov –

Bundan ketay desam sog'inch qo'ymaydi.

Usmon Azim lirkasidagi tabiat tasviri betakrorligi bilan e'tiborga molik. Jumladan, shoirning "Deraza haqida ballada"si qulqutaylik. Quyidagi parchada tabiat hodisasi bo'lgan yomg'ir yog'ishi va inson ruhiy holati takror vositasida yaqqol o'z aksini topgan:

Yomg'irday bir sog'inch ko'ksimga to'ldi,



Yurakka tutashdi notanish g‘ulu.
Nogoh Vatanimni ko‘rganday bo‘ldim,
Qodiriyning xuddi o‘zi edi u.
To‘rt devordan bo‘lsa, boqardilar jim,
Sinovchan ko‘zlarin ko‘zimga qadab,
Hozircha suratda taniganlarim —
Navoiy, Nodira, Gulxaniy, Mashrab...

Usmon Azim tabiatni rassomlarday o‘ziga xos tarzda ko‘ra oladi. U xuddi rassom kabi ko‘rganini o‘zi his qilganiday tasvirlashga qodir ijodkor. Bu borada “Kuz” majmuasidagi birinchi, epigraf sifatida keltirilgan “Yomg‘ir hidi” nomli xayolomuz she’rning boshlanishiga e’tibor beraylik:

Yomg‘irli kechada falakka uchdim,
Shamollar yuzimga yopishdi ivib.
Yulduzlar armonli shivirga tushdi:
Yomg‘irning hidi-ku, yomg‘irning hidi!
- Yomg‘irning hidi!..

Yomg‘ir – Usmon Azimning sevimli obrazlaridan, yomg‘irli kun yoki tun esa uning qalbini junbushga keltiruvchi tabiat mo‘jizalaridan biri. Agar yomg‘ir yosh yigit va qizlarning muhabbat tuyg‘ulariga jo‘rovozlik qilsa, umr bahorini ortda qoldirgan kishilarda daf‘atan g‘ussa tuyg‘usini uyg‘otib yuboradi, o‘tayotgan umrning uchqurligini yodlariga solib, ularni hazin va mungli kayfiyat og‘ushiga oladi. Mazkur she’rda lirik qahramon o‘zi sevgan yomg‘irli kechada qanot bog‘lab uchgandek bo‘ladi. Yomg‘irdan ivigan shabada uning yuziga urilib yopishadi. Bu g‘aroyib manzarani ko‘rgan yulduzlar yer tagida yotgan kishilarga havas qilishadi. Ular - osmonda charaqlab turgan yulduzlar nazdida yer tagida yomg‘ir navosini eshitib uplash nash’ali edi. Ular ana shu baxtdan bahramand bo‘lishi mumkin bo‘lgan lirik qahramonga havas bilan boqib, uni kumush nurlar changiga ko‘mib yuboradilar. Bu ular tomonidan lirik qahramonga ko‘rsatilgan mehr - muhabbatning belgisi edi. Ammo lirik qahramon hatto kumush nurlar changida ko‘milishni ham xohlamax, tangriga: “Zaminga bermagin izmim”, - deb yolvoradi. Yomg‘ir hidi bilan mast bo‘lgan yulduzlar uning bu yolvorishidan g‘ussa hidini sezadilar.

Xulosa sifatida aytadigan bo‘lsak, Usmon Azim she’riyatida yomg‘ir tushunchasi obraz darajasiga ko‘tarila olgan. Yomg‘ir shoir she’rlarining aksar qismida oshiq timsoli sifatida o‘z mahbubasi ishqida kuygan, ayriliq azoblarini tortgan jafoakash hamda sog‘inch, ko‘z yoshi sifatida tasvirlangan. Yomg‘ir obrazi ramziy ma’no bildirib shoir mahorati bilan go‘zal poetik ifoda kasb etgan.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Azimov U. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 1995
2. Azimov U. Kuz. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2001.
3. Azimov U. Yurak. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2009.
4. Yo‘ldoshev Q. Yirik tuyg‘ular kuychisi// Til va adabiyot ta’limi. 2010. № 8.



ISTIQLOL DAVRI XURSHID DO‘STMUHAMMAD HIKOYALARIDA MAVZU VA G‘OYA

Nazirova Nargiza Odiljonovna

FVXTXQTMOHM

Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

tel: 90-303-85-85

e-mail:nnargiza@gmail.com

Annotatsiya: maqolada Xurshid Do‘stmuhhammadning hikoyalari, unda ifodalangan mavzu va g‘oya xususidagi masalalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: hikoyachilik, badiiyat, zaruriyat, falsafiy qarashlar

Mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan keyin milliy qadriyatlarimizni, jumladan, uning eng muhim tarkibiy qismi bo‘lgan milliy adabiyotimizni o‘rganish va badiiyatini kashf etish imkoniyati va zaruriyati yuzaga keldi. Chunki milliy ruhni bizga beruvchi bu adabiyot globallashuv asrida taraqqiyotimizga xavf solib turuvchi ko‘plab yet g‘oya va mafkuralardan himoya qiladi. Istiqlol adabiyoti o‘zbek xalqiga umumjahon ijtimoiy falsafiy qarashlaridagi turfa xil yo‘nalishlar bilan yaqindan tanishish imkonini berdi. Bu hol millatni bir xilda fikrlash majburiyatidan qutultirdi. Natijada milliy tafakkurning barcha sohalari singari o‘zbek nasrining mazmun mundarijasi, shaklu-shamoyili va ifoda yo‘sinda ham jiddiy evrilishlar sodir bo‘ldi. Rivojlanishlar davriga kirgan bir paytda bugungi kun ijodkorlari ijodini ham keng miqyosda o‘rganish ommaviy tus olmoqda. Zero, har bir asar o‘z davrining ko‘zgudagi aksi o‘laroq maydonga kelar ekan, ayni holat bizga badiiy asarlarimiz yordamida qay yo‘sinda evrilishlarni boshimizdan kechirayotganimizni ko‘rsatib beradi. Shu sababdan ham istiqlol davri adabiyoti «aholisi» sezilarli darajada nozik, ingichka, o‘ziga xos, betakror bo‘lib bormoqda. Olamni, odamni, uning tuyg‘ularini turlicha ifodalaydigan asarlar paydo bo‘lmoqda. Bir xil asosdagagi ruxsat etilgan xilma-xillikdan chin badiiy turfalik yo‘liga o‘tila boshlandi. Adabiyotning insonni tasvirlash tamoyillarida jiddiy yangilanishlar ro‘y berdi. Odamlarga munosabatda axloqiy mezonlar emas, ishlab chiqarish o‘lchamlari ustuvor rutbada bo‘lardi. Bugungi adabiyot uchun inson bosh qadriyatga aylandi. Uning tuyg‘ulari, sezimlari, o‘ylar oqimi bilan qiziqila boshlandi. Badiiy adabiyot insonni ishchi kuchi sifatidagina tasvirlashdan qutulib bormoqda. Ayni vaqtida, adabiyotda tasvir etilayotgan insonning mas’ullik darajasi ham ortdi. Odam qanchalik mukarram bo‘lsa, o‘z xatti-harakatlari, hatto niyatlar uchun o‘shancha darajada javobgar zot tarzida tasvir etila boshlandi. Chinakam asarlar o‘quvchiga aql o‘rgatishga, uning uchun «hayot qo‘llanmasi» bo‘lishga urinmaydi, buni da’vo ham qilmaydi. Shu bois bu adabiyotni munosabatlar adabiyoti deyish mumkin. Abdulla Qahhor joyiga keltirib aytib qo‘yganday: «Bilgan bilib qo‘yaverishi mumkin. His qilgan his qilib qo‘yavermaydi». His qilish-munosabat, munosabat-faoliyat demakdir. Bu adabiyot inson, insonparvar munosabatlar g‘oyat murakkab, chigal va izohlash mushkul ekanligi chuqur anglagan va ularni butun murakkabliklari bilan aks ettirishga harakat qilayotgan adabiyotdir. Holbuki, ba’zan bir odamning xatti-harakatlari sababini adib tugul o‘sha kishining o‘zi ham to‘la tushuntirib bera olmaydi. Ana shu holatning milliy badiiyatimizga ko‘chganligi insonga sirli xilqat tarzida yondashish, uning taqdiridagi chigalliklarni tushunishga maylini keltirib chiqarmoqda. Shu tariqa, adabiyotdagi obraz hayotdagi odamga qaraganda chuqurroq, murakkabroq, o‘ychanroq, ingichkaroq bo‘lib bormoqda.

Adabiyotni puxta o‘rganish g‘oyaviy – tarbiyaviy ishlar orasida eng asosiy masalalardan hisoblanadi. O‘z navbatida milliy va jahon adabiyotini chuqur o‘zlashtirish, uning badiiy, falsafiy jihatlarini tadqiq etish adabiyotshunoslik fanining asosiy vazifalaridan biridir. Qolaversa, turli davrlarda yaratilgan yetuk ijodkorlar asarlari bilan bir qatorda zamonaviy shoir va yozuvchilarning nodir asarlarini tadqiq etmog‘imiz darkor. Chunki ijodkorning turli mavzuga bag‘ishlangan badiiy asarlarida badiiylikni oshirish, shu bilan birga o‘quvchida real tasviriy holatni ishontira bilish, emotsiyal - bo‘yoqdor so‘zlardan foydalanish, turli sohalarga oid so‘z va atamalarni soha mutaxassisidан ham ortiq o‘ziga xos uslubda adabiy til normasi sifatida tasvirlay olish so‘z san’atkordan katta mahorat talab etadi. Bu esa bugungi kun ijodkorlari hamisha diqqat-e’tiborimizda bo‘lishi lozimligini, ularning yaratgan asarlari ma’naviyatimiz yuksaltirishga har tomonlama ko‘mak berishini qulog‘imizda mahkam tutishimiz lozimligini anglatadi. Xurshid Do‘stmuhhammad badiiy asarlarida hayotning turli jabhalariga taalluqli bo‘lgan qarash va xulosalar uning uslubiga xos tarzda o‘z badiiy ifodasini topgan. Bu esa, albatta, so‘z san’atkoring



dunyoqarashi bilan bog‘liq kuzatuvchanlik, turli sohalarga bo‘lgan qiziquvchanlik, ayniqsa, insonparvarlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan ijtimoiy va ma’naviy mulohazakorligidan darak beradi. Haqiqatan ham Xurshid Do‘stmuhammadning “Vasiy”, “Qichqiriq”, “Shabada” kabi hikoyalaridagi rangin bo‘yoqlar, tasvirning ajoyibligi, kishi ko‘nglini kashf eta oladigan lingvopoetik xususiyatlar ijodkor tafakkurida, chuqur joy olib, sayqallanib, asarlar ruhini bezab turgani kishini hayratga soladi. Zero, adibning aqlni shoshirib qo‘yadigan o‘xshatmalari va tasvirlari badiiyatga oshufta har bir yurakni hayajonga solmasdan qo‘ymaydi. San’at va adabiyot borasida yangicha fikrlaydigan, dunyoqarashi eski qolip va mafkuralardan holi bo‘lgan yosh avlodni voyaga yetgazishda bundayin so‘z badiiyatining o‘rni beqiyos bo‘ladi, shubhasiz. Shu ma’noda bu asarlarning hali ilg‘ab olinmagan badiiyatlari, kashf etilmagan jozibasi kam emas.

Har qanday millat borki, uning adabiy merosi, o‘ziga xos urf- odatlari shu xalqning ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga hamda saviyasini oshirishga xizmat qiladi. Xurshid Do‘stmuhammad o‘z hikoyalarida tipik odamni emas, balki alohida o‘ziga xos va betakror odamni-tipni tasvir etadi. O‘quvchi o‘sha hammaga o‘xshamagan, alohida odamni tushunish mobaynida o‘zgani anglay boradi. O‘zgani tushunish esa, o‘zini tushunish sari qo‘yilgan dastlabki qadamdir. Har bir banda yaratgan Alloho ni o‘zini tushungan darajadagina taniy biladi. Ijodkor badiiy qahramonlarni turli rakurslardan turib, eng ichkin va yashirin jihatlarigacha tadqiq etish imkoniyatini berdi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. X. Do‘stmuhammad. «Hijronim mingdir mening » qissa va hikoyalar to‘plami: T.,2000
2. Shukurov N. Uslublar va janrlar. T., Adabiyot va san’at. 1973.



ЭРКИН, ЁШ АВЛОДЛАР СЕНГА ЗЎР ҚАНОТ!

Дилобар Раҳманова

Тошкент шаҳар юридик коллежи

Ёшлар билан ишлаш бўлими бошлиғи

Телефон: +998(97)7736324

1973.dilobar@gmail.com

Аннотация: Ёшлар, шу жумладан талабалар ва ўқувчилар ўртасида атоқли адаблар ва мутафаккирларимиз ижодий меросини кенг тарғиб қилиш, уларнинг адабиётга қизиқишиларини янада ошириш ва рағбатлантириш.

Калит сўзлар: Адабиёт, маърифат ва маданият, аждодлар мероси, меъморий ансамбль.

Адабиёт ҳар бир халқнинг ўтмиши, бугуни ва келажагини боғловчи таъсир кучига эга муҳим воситадир. Унда миллатнинг маданияти, урф-одати, дунёқарashi, маънавияти акс этади. Демак, адабиёт яшаса миллат яшайди, унинг шаъни улуғланади, қадриятлари қадр топади.

— Адабиёт халқнинг юраги, элнинг маънавиятини кўрсатади. Бугунги мураккаб замонда одамлар қалбига йўл топиш, уларни эзгу мақсадларга илҳомлантиришда адабиётнинг таъсирчан кучидан фойдаланиш керак. Аждодлар меросини ўрганиш, буюк маданиятимизга муносиб буюк адабиёт яратиш учун ҳамма шароитларни яратамиз, — деган эди Шавкат Мирзиёев.

Шу боис Президентимиз ташаббуслари билан мамлакатимизда адабиёт ва санъатга алоҳида ҳурмат билан ёндашилиб келинмоқда. Уни ривожлантириш йўлида ислоҳотлар тизимли олиб борилмоқда. Бундан 3 йил аввал ана шундай мақсадларга хизмат қилувчи яна бир йирик лойиҳага қўл урилди, яъни Вазирлар Махкамасининг 2017 йил 18 апрелда Алишер Навои номидаги Ўзбекистон Миллий боғи худудида “Адилар хиёбони” барпо этиш тўғрисидаги қарори қабул қилди.

Қарорга кўра хиёбоннинг меъморий-гоявий лойиҳаси ишлаб чиқилди. Мажмуавий тарзда олиб борилган бунёдкорлик ишлари натижасида пойтахтимиз марказидаги Адилар хиёбонининг яхлит меъморий ансамбли яратилди. Бу тарихий воқелик адабиётимизни яна бир поғона юксакка кўтариши билан аҳамиятлиdir.

Хусусан Президентимиз мазкур масканнинг очилиш маросимида Адилар хиёбонини адабиёт, маърифат ва маданият масканига айлантириш зарурлигини таъкидлаган эдилар. Ҳар бир адаб ҳайкални муайян олий ўқув юртига бириктирилиб, бу ерда очиқ дарслар ҳамда маънавий ва маърифий тадбирлар ўтказиш бўйича тавсиялар берилади, хиёбон маънавий жиҳатдан кенг қамровли бўлиб катта мақсадлар йўлида хизмат қилишини аълоҳида таъкидлаган эдилар.

Сир эмаски, одамларнинг дунёқарашини бойитиш, эзгу мақсад-гояларга илҳомлантириш учун адабиётдан кенг фойдаланиш лозим. Унинг таъсири натижасида, айниқса, фарзандларимиз онгини турли таҳдидлар, ёт ғоялардан сақлашга эришамиз. Демак, таълим муассасаларида маҳорат дарслари, турли танловлар, ноанъанавий ўқитиши услубларидан самарали фойдаланиш, таълим-тарбия жараёнинда ўқувчига нафақат билим, балки эстетик завқ бағишлиб, дарсга, фанга бўлган қизиқишини оширишга хизмат қилувчи янгиликлар жорий этиш керак.

Ўтган вақт мобайнида қурилиш ва ободонлаштириш ишлари амалга оширилиб, 8 гектардан зиёд майдонда Адилар хиёбонининг яхлит меъморий ансамбли яратилди.

Илгари бу ерда саноқли адиларимизнинг ҳайкаллари бор эди. Гўёки, Алишер Навоийдан сўнг истеъододли шоирлар етишиб чиқмагандай таассурот пайдо бўларди. Шу боис Адилар хиёбонини гоявий-бадиий жиҳатдан янада бойитиш мақсадида Бобур, Оғаҳий, Бердак, Муқимий, Фурқат, Беҳбудий, Авлоний, Чўлпон, Қодирий, Тўлепберген Қайипбергенов, Ибройим Юсупов, Александр Файнберг сингари атоқли намояндалар хоти-расига бағишлиланган янги ёдгорлик мажмуалари ҳам яратилиб, хозирда 25 та атоқли шоир ва адиларнинг ҳайкаллари яхлит меъморий ва бадиий композицияда, мантиқий ечим асосида жойлаштирилди.

Ёшлар, шужумладанталабалар ва ўқувчилар ўртасида атоқли адилар вамутафаккирларимиз



ижодий меросини кенг тарғиб қилиш, уларнинг адабиётга қизиқишларини янада ошириш ва рағбатлантириш масадида Адиблар хиёбонидан самарали фойдаланиш ва таълим муассасаларида адиблар ижодини ўрганиш бўйича чора-тадбирлар режаси ишлаб чиқилган ва ҳайкаллари ўрнатилган атоқли ёзувчи ва шоирларнинг ҳаёти ва ижодини чуқур ўрганиш ҳамда тарғиб қилиш бўйича олий таълим муассасаларига бириктириб берилган.

Зотан, илм бу маърифат, маънавият бу инсоннинг ҳаёт-мамоти билан боғлиқ бўлган жараёндир. Адиблар хиёбонининг очилиши ҳамда у ерда яратилган юксак маънавий мерос объектлари халқимизнинг руҳиятини кўтаришга, ёшларнинг келажакка бўлган ишончини мустаҳкамлашга хизмат қилишига шубҳа йўқ.

Дарҳақиқат, янги барпо этилган хиёбон эса истеъдодли, ижодкор ўқувчиларимиз учун катта совға бўлди.

Бугунги ёшлар интернет, электрон адабиётлардан кўпроқ фойдаланишини инобатга олсақ, миллий адабиётимиз хазинасини интернетда тарғиб этиш энг самарали усул ҳисобланади. Замонавий технологиялардан фойдаланган холда адабий порталлар яратиш ҳам муҳим вазифалардан саналади. Унда мумтоз ва замонавий асарларнинг электрон нусхалари, ёзувчи ва адабиётшуносларнинг маҳорат сабоқлари жамланади. Портал ўзбек, инглиз ва рус тилларида фаолият кўrsатса, ундан хорижлик муҳлис ва мутахассислар ҳам кенг фойдаланиш имкониятига эга бўлади.

Хулоса қилиб шуни таъкидлаш лозимки, ёшларни китоб ўқишига бўлган қизиқишларини ошириш, аҳолининг китобхонлик кўникмасини янада юксалтириш, миллий адабиётимиз ва жаҳон адабиётининг энг яхши намуналарини интернет тармоқларига жойлаштириш ва уларни кенг тарғиб қилиш ҳамда тинимсиз ўқиши, ўқитиши, фарзандларимизга тўғри ва муносиб таълим-тарбия бериш орқали ўзимизнинг келажагимизга инвестиция ҳозирлаган бўламиз.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Атоқли адиблар ва мутафаккирларимиз ижодий меросини ёшлар ўртасида тарғиб қилиш ҳамда адиблар хиёбонидан самарали фойдаланиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Карор
2. Тошкент шаҳридаги Адиблар хиёбонидан самарали фойдаланиш ва таълим муассасаларида адиблар ижодини ўрганиш бўйича чора-тадбирлар режаси
3. Интернет сайdlар: www.LEX.UZ.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 28-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(8-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.05.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000